



BO'LAJAK MUTAXASSISNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM METODLARI TA'SIRI

A.X.Aripova

Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali
Umumta'lim fanlar kafedrasi mudiri v.b., f.f.n., PhD
mumtozim@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7066187>

ARTICLE INFO

Received: 03rd September 2022

Accepted: 06th September 2022

Online: 09th September 2022

KEY WORDS

innovatsiya, texnologiya, boshqarish jarayoni, pedagogik jarayon, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyat, yangilik, o'zgartishlar kiritish, interfaol usul, ta'limda boshqaruv roli.

Bugungi kunda mamlakatimizga chuqur bilimli, malakali, tezkor va konstruktiv tarzda qaror qabul qila oladigan mutaxassislar zarur. Shu bois o'qituvchi va talabaning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi ta'lim jarayonining muhim jihatiga aylanib, bunda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish katta rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirishga hamda talabalarning mustaqil ishlarining rolini faollashtirishga ko'maklashadi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kelajakda uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi. Innovatsiya yoki yangilash insonning har qanday kasbiy faoliyatiga xosdir. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmay, ilmiy izlanishlar,

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'qituvchi va talabaning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi jarayonida ta'lim uchun muhim sanalgan interfaol texnologiyalar, innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, pedagogik kompetentlikni amalga oshiruvchi masalalar doirasi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari, shakl va metodlari yoritilgan. Interfaol metodlarning o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlari ochib berilgan.

ilg'or pedagogik tajriba natijalari sirasiga kiradi.

«Innovatsiya» tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda «yangilanish, yangilik, o'zgarish» ma'nosini anglatadi. Pedagogik jarayonda innovatsiya ta'lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, metod va shakllariga yangilik joriy qilish, o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish demakdir. Bugungi kunda pedagogikada aynan innovatsiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul vositasi bo'lib bormoqda.

Hozirgi globallashtirish jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni



o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirgan, bu axborotlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bu borada kasb-hunar ta'limida innovatsion texnologiyalarning boshqarish jarayonidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta'limda boshqaruv rolini o'qituvchi bajaradi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish, samarali

suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga erishish mumkin. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi aniq maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etadi. Shuningdek, talabalarni muayyan bilimlar sohasini egallashga yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini xolis baholash imkonini beradi.

Hozirgi kunda interfaol ta'lim texnologiyalaridan ommaviylari quyidagilar sanaladi: **interfaol metodlar** ("Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat", "Musobaqabellashuv" va b.); **strategiyalar** ("Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval" va h.k.); **grafik organayzerlar** ("Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Nilufar guli", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?") va boshqalar.

Shu bois interfaol ta'lim texnologiyalaridan o'qitish jarayonida qo'llash natijasida:



-talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
-talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
-talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;

-ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
-har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
-o'quv material



ning samarali



yaratadi;
-talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
-talabalarda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat"ga quyidagicha ta'rif berilgan: "innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma", "innovatsion faoliyat – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat" deb, ta'rif berilgan.

"Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik"ni amalga oshiriladigan masalalar doirasida **o'qituvchi:**

- innovatsion ta'lim texnologiyalarining funksiyalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari va qo'llanilish sohalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;

- innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilarining mohiyati;

- pedagogik kompetentlik asoslari va sifatleri;

- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari, shakl va metodlari;

- pedagogik kompetentlik potentsiali va undan oqilona foydalanish shartlari;

- pedagoglarning kasbiy faoliyat (o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish)ga kreativ yondashishlari haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi;**

- aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish;

- interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirish;



- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta'lim texnologiyalari (amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case-study (keys-stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ni oliy ta'lim amaliyotiga samarali **tatbiq etish ko'nikmalarini egallashi**;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini "jonli", ijodiy tashkil etish;
- innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining oqilona tanlab olish;
- mutaxassislik bilan bog'liqlikda innovatsion ta'lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg'unlashtirishga erishish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish malakalarini egallashi;
- pedagogik innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish;

- ta'lim jarayonining innovatsion xarakter kasb etishini ta'minlash;
 - innovatsion ta'lim texnologiyalari (innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ga asoslangan **o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishi**;
 - talabalarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo'naltirish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.
- "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" **asosida o'qitish jarayonida**:
- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
 - o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi

Ta'lim texnologiyasining tuzilishi	
Kirish	
Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari	
Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda ta'lim texnologiyasi	

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi:



Ta'lim texnologiyasi modeli



O'quv mashg'ulotini tuzilishi



O'quv mashg'ulotining maqsadi va pedagogik vazifalar




O'quv faoliyatining kutilajak natijalari

Darsda kompyuter, **smartteybl**lardan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Bunda, birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng imkoniyatlari orqali talabalarga juda ko'p bilim, fakt va ma'lumotlarni yetkazish mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, o'qituvchining innovatsion reja, g'oya va o'y-fikrlarini to'laqonli amalga oshirish yengil va samarali tarzda kechadi. Bunday jarayonlar, ayniqsa, sohaga yo'naltirilgan fanlar ta'limida salmoqli o'rin tutadi. Uzluksiz ta'lim tizimida bilim oluvchi va tarbiyalanuvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish bilan

cheklanib qolmasdan, kelajakda amaliy faoliyatlarida o'zlari innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashlariga o'rgatishni uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri, deb hisoblanadi. Fanlar integratsiyasi evaziga sivilizatsiyaning eng noyob yutuqlari qo'lga kiritilmoqda. Insonning tashqi dunyoni va o'zligini anglashi, odam va jamiyat munosabatlarining yangi qonuniyatlarini bilib olishi sodir bo'lmoqda. Ana shunday dialektik jarayonda ishlab chiqarishdek inson aql-zakovati bilan yo'lga qo'yilgan iqtisodiy hodisa yetakchi pozitsiyaga ko'tarilmoqda.

O'qitish shakllari:





Interfaol metodlar: ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llabquvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, ammo, ularning har birini ta'lim jarayonida qo'llashda individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli pedagoglar interfaol metodlar va texnologiyalarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu,

muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodlarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi metod yoki texnologiyani tanlaganda talabaning psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, bilim va ko'nikmalari hamda tinglovchilarning tajribalarini ham inobatga olishi lozim. Albatta bu holat o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

References:

1. The Live Word Is An Important Tool That Constitutes The Content-Essence Of The Oratory Art*
2. The ideal appearance of a modern teacher
3. Methods, aspects and components of teaching the Uzbek (Russian) language as a foreign language on the experience of foreign students
4. Идея совершенной и всесторонне развитой личности как социокультурный феномен в развитии человека
5. ZAMONAVIY TA'LIMDAGI MUAMMOLAR
6. TIL TA'LIMIDA ZAMONAVIY TRENDLAR